TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Serali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUJJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdhamovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEXANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	



QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich

Innovatsion texnologiyalar universiteti

“Moliya va iqtisodiyot” kafedrası dotsenti.

E-mail: mambetnazarovbaxit630@gmail.com

ORCID: 0009-0007-4682-2455

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining agrar tarmog'ida kechayotgan transformatsion o'zgarishlarning institutsional mexanizmlari hamda ularning samaradorligi tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida 2018–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida agrar ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasidagi o'sish tendensiyalari ilmiy asosda yoritilgan.

Maqolada yer va suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, klaster va kooperatsiya modelini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish agrar islohotlarning asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatilgan. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va institutsional uyg'unlikni mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar agrar tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston, agrar tarmoq, transformatsion o'zgarishlar, institutsional mexanizmlar, samaradorlik, klaster tizimi, kooperatsiya, raqamli boshqaruv, barqaror rivojlanish, innovatsion islohotlar.

Abstract. This article examines the institutional mechanisms and efficiency of transformational changes occurring in the agrarian sector of the Republic of Karakalpakstan. Based on statistical data from 2018–2024, the study scientifically analyzes the trends in the growth of agricultural production and employment levels in the region.

The paper highlights the improvement of land and water resource management systems, the development of cluster and cooperative models, and the implementation of digital technologies as the key directions of agrarian reforms. In addition, practical recommendations are developed to enhance financial resource utilization, strengthen innovation infrastructure, and improve institutional coordination. These measures aim to increase the competitiveness and ensure the sustainable development of the agrarian sector.

Key words: Karakalpakstan, agrarian sector, transformational changes, institutional mechanisms, efficiency, cluster system, cooperation, digital management, sustainable development, innovative reforms.

Аннотация. В статье проанализированы институциональные механизмы трансформационных изменений и их эффективность в аграрном секторе Республики Каракалпакстан. На основе статистических данных за 2018–2024 годы научно обоснованы тенденции роста объемов аграрного производства и уровня занятости населения.

В работе выделены ключевые направления аграрных реформ — совершенствование системы управления земельными и водными ресурсами, развитие кластерной и кооперационной моделей, а также внедрение цифровых технологий. Кроме того, разработаны практические рекомендации по повышению эффективности использования финансовых ресурсов, укреплению инновационной инфраструктуры и институциональной согласованности. Предлагаемые меры направлены на повышение конкурентоспособности и обеспечение устойчивого развития аграрного сектора региона.

Ключевые слова: Каракалпакстан, аграрный сектор, трансформационные изменения, институциональные механизмы, эффективность, кластерная система, кооперация, цифровое управление, устойчивое развитие, инновационные реформы.



KIRISH

So'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida agrar tarmoq iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida chuqur islohotlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Agrar sohada amalga oshirilayotgan transformatsion o'zgarishlar mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, qishloq aholisi bandligini oshirish hamda hududlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Shu munosabat bilan sohada institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish va innovatsion yechimlarni amaliyotga keng tatbiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi" hamda "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi" kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar agrar tarmoqda institutsional o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu hujjatlarda fermer xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, klaster tizimini kengaytirish, innovatsion agroteknologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish muhim strategik vazifalar sifatida qayd etilgan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, agrar tarmoqda kechayotgan transformatsion jarayonlarning institutsional mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda mavjud imkoniyatlar va muammolarga kompleks yondashuv ishlab chiqish Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy taraqqiyotini barqaror rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qoraqalpog'iston agrar tarmog'idagi transformatsion o'zgarishlar va ularning institutsional mexanizmlarini o'rganish so'nggi yillarda iqtisodiy fanlar tizimida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Ushbu masalalar bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar agrar islohotlarning samaradorligini oshirish, hududiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni takomillashtirish borasida muhim nazariy va amaliy xulosalarni taqdim etadi.

Mahalliy manbalarda agrar tarmoqni modernizatsiya qilish jarayonlarida davlat ishtirokini optimallashtirish, bozor mexanizmlarini kuchaytirish va xususiy mulkchilik munosabatlarini chuqurlashtirish zarurati alohida ta'kidlanadi. Jumladan, o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar A. Vahobov, X. Xodiev, Sh. Ergashev, R. Umarov va boshqalar o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligini institutsional rivojlantirish, yer va suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda klaster va kooperatsiya modelining samaradorligini oshirish masalalarini chuqur tahlil qilganlar. Ularning fikricha, agrar sohada transformatsion o'zgarishlarning muvaffaqiyati, avvalo, davlat siyosatining izchilligi, institutlararo muvofiqlik va innovatsion infratuzilmaning rivojlanganligiga bog'liqdir [1].

Xorijiy adabiyotlarda esa transformatsion jarayonlarning institutsional xususiyatlari, asosan, iqtisodiy tizimlarning barqarorligini ta'minlash hamda agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. D. Nort, J. Stiglitz, H. de Sotro va E. Ostrom kabi taniqli iqtisodchilar institutsional iqtisodiyot nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan bo'lib, ular samarali institutlar iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omili ekanini ilmiy asoslab berganlar. Ularning fikricha, agrar sohada mulk huquqlarining aniq belgilanishi, shaffof boshqaruv tizimining joriy etilishi va iqtisodiy rag'batlarning to'g'ri yo'naltirilishi transformatsion o'zgarishlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi [2].

Rossiyalik tadqiqotchilar M. Rutkovskiy, A. Nikonov, V. Uzun, E. Serova va boshqalar agrar tarmoqda transformatsion islohotlarni o'rganishda tizimli yondashuvni taklif etganlar. Ularning ishlarida agrar siyosatning institutsional asoslari, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik modeli, innovatsion klaster tizimining iqtisodiy samarasi hamda raqamli boshqaruvning ahamiyati keng yoritilgan. Ayniqsa, E. Serova o'z tadqiqotlarida agrar sektorni liberallashtirish va diversifikatsiya qilishning ijobiy iqtisodiy natijalarini amaliy misollar asosida isbotlab bergan [3].

Markaziy Osiyo miqyosida o'tkazilgan ilmiy izlanishlarda suv resurslarini boshqarish, yer munosabatlarini isloh qilish va kooperativ tuzilmalarning samaradorligini oshirish masalalari yetakchi mavzulardan biri sifatida qaraladi. Jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston olimlarining tadqiqotlarida institutsional islohotlarning agrar barqarorlikka ta'siri, kichik fermer xo'jaliklarining integratsiyasi va innovatsion agroteknologiyalarni joriy etish jarayonlari batafsil tahlil qilingan [4].

Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, agrar tarmoqning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan. Bu borada U. Yeshimbetov va B. Mambetnazarov kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular o'z izlanishlarida Aralbo'yi mintaqasida agrar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, yer unumdorligini oshirish hamda mahalliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo'yicha aniq ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishgan [5; 6].



Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy manbalar agrar tarmoqda institutsional islohotlarni chuqur o'rganish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'ziga xos tabiiy-iqtisodiy sharoitlari, ekologik muhit va ijtimoiy infratuzilmasi ushbu hudud uchun mahalliy sharoitga moslashtirilgan, innovatsion yondashuvlarga asoslangan transformatsion modelni ishlab chiqishni talab etadi. Shu sababli, mazkur tadqiqot Qoraqalpog'iston agrar tarmog'ida transformatsion o'zgarishlarning institutsional mexanizmlarini chuqur tahlil qilish hamda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasining agrar tarmog'ida kechayotgan transformatsion o'zgarishlarning institutsional mexanizmlari hamda ularning samaradorligi tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy, iqtisodiy-statistik va institutsional tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Qiyosiy tahlil orqali Qoraqalpog'iston agrar sektorining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari O'zbekistonning boshqa hududlari hamda Qozog'iston, Rossiya va Turkiya tajribalari bilan solishtirildi [7]. Ushbu yondashuv hududlar kesimida transformatsion jarayonlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi.

Iqtisodiy-statistik tahlil 2018–2024-yillar oralig'idagi rasmiy ma'lumotlar asosida olib borilib, ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, yer va suv resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari, investitsiya oqimlari hamda eksport salohiyatining o'sish tendensiyalari tahlil qilindi [8]. Ushbu usul yordamida agrar tarmoqdagi iqtisodiy o'zgarishlarning dinamikasi va rivojlanish sur'atlari ilmiy asosda baholandi.

Institutsional tahlil yordamida agrar boshqaruv tizimining huquqiy asoslari, klaster va kooperatsiya modellarining samaradorlik darajasi, shuningdek, ularning hududiy rivojlanish jarayonlariga ta'siri o'rganildi. Tahlil natijalari agrar islohotlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, boshqaruv tizimlari o'rtasidagi institutsional muvofiqlikni baholash va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qoraqalpog'iston Respublikasining agrar tarmog'i so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning eng faol va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. 2018–2024-yillar davomida bu sohada chuqur transformatsion o'zgarishlar amalga oshirilib, ishlab chiqarish tuzilmasi, boshqaruv tizimi hamda iqtisodiy munosabatlarning institutsional mexanizmlari sezilarli darajada yangilandi. Qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining agrar sohani rivojlantirishga oid farmonlari, qarorlari va davlat dasturlarida o'z ifodasini topib, Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining barqaror o'sishida muhim o'rin egalladi.

Transformatsion islohotlarning asosiy yo'nalishlari sifatida klaster tizimini kengaytirish, kooperatsiya mexanizmini takomillashtirish, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish ko'rsatib o'tiladi. Ushbu yo'nalishlar agrar tarmoqni faqat ishlab chiqarish sohasi emas, balki kompleks iqtisodiy tizim sifatida rivojlantirish imkonini yaratdi.

2018–2024-yillar davomida Qoraqalpog'iston agrar tarmog'ining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan bo'lib, bu davrda ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishi, bandlikning kengayishi, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligining ortishi, shuningdek investitsiya oqimlari va eksport hajmining izchil ko'paygani kuzatilgan.

Mazkur natijalar agrar tarmoqda olib borilayotgan transformatsion islohotlarning amaliy samaradorligini tasdiqlab, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, tarmoqning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasining agrar tarmog'idagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2018–2024-yillar)

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2020-yil	2022-yil	2024-yil	O'sish sur'ati, %
Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti (mlrd so'mda)	10 850	13 420	16 780	20 950	92,9
Qishloq xo'jaligida band aholining ulushi (%)	31,5	32,1	33,0	34,6	+3,1
Asosiy kapitalga investitsiyalar (mlrd so'mda)	1 120	1 850	2 760	3 950	252,7
Sug'oriladigan yer maydoni (ming gektar)	420	423	425	428	+1,9
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti (mln AQSh dollari)	45,6	62,3	88,4	120,5	164,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari [9].



Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2018–2024-yillar oralig'ida agrar tarmoqning deyarli barcha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha barqaror va ijobiy dinamikaga erishilgan. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qariyb ikki barobarga oshib, bu ko'rsatkich nafaqat ishlab chiqarish hajmining kengayganini, balki agrar sektorning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni mustahkamlanayotganini anglatadi.

Investitsiyalar hajmining 2,5 barobar ortishi iqtisodiyotda transformatsion mexanizmlarning samarali ishlayotganini tasdiqlaydi. Xususan, klaster tizimi asosida paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik va chorvachilik yo'nalishlarida yangi ishlab chiqarish zanjirlari shakllantirildi. Bu jarayon nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi, balki bandlik darajasining o'sishiga ham sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2024-yilda agrar tarmoqda band aholining ulushi 34,6 foizga yetib, 2018-yilga nisbatan 3,1 foizga ortdi.

Sug'oriladigan yer maydoni bo'yicha o'sish nisbatan barqaror bo'lib, bu holat suv resurslarining oqilona boshqarilayotgani va ekologik omillar hisobga olingan holda barqaror rivojlanish tamoyillari amalga oshirilayotganini bildiradi. Shu bilan birga, suvni tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug'orish tizimlari hamda raqamli monitoring vositalarining joriy etilishi natijasida mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi yanada oshgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining 164 foizga o'sishi esa tarmoqning tashqi iqtisodiy aloqalari kengayganini va eksport salohiyati mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Xususan, Qoraqalpog'iston fermer xo'jaliklari tomonidan Rossiya, Qozog'iston, Xitoy va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga meva-sabzavot hamda chorvachilik mahsulotlari eksporti hajmi sezilarli darajada oshgan. Bu esa tarmoqning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va valyuta tushumlarini ko'paytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, mavjud natijalar agrar tarmoqda transformatsion islohotlar tizimli tarzda amalga oshirilayotganini va ular hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tarmoqda yechimini talab qiluvchi ayrim strukturaviy va institutsional masalalar ham mavjud. Xususan, suv resurslarining cheklanganligi, infratuzilma obyektlarining modernizatsiya ehtiyoji, innovatsion texnologiyalarni joriy etish sur'atining yetarli darajada tez emasligi hamda moliyaviy resurslarning nisbatan cheklanganligi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning barqarorligini yanada mustahkamlash zaruratini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni anglatadiki, mavjud institutsional mexanizmlar ayrim hollarda ma'muriy yondashuvga ortiqcha tayanadi, bu esa xususiy sektor faolligini to'liq rag'batlantirish imkonini chegaralab qo'yadi. Shu bois, agrar sohada islohotlarning keyingi bosqichida quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- agrar boshqaruv tizimida mahalliy institutlar va fermer birlashmalarining vakolatlarini kengaytirish;
- yer va suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni yanada chuqur integratsiya qilish;
- davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- innovatsion va ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirish orqali texnologik modernizatsiya jarayonini jadallashtirish.

Umuman olganda, 2018–2024-yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasining agrar tarmog'ida amalga oshirilgan transformatsion o'zgarishlar o'zining dastlabki barqaror natijalarini bermoqda. Bu jarayonlarda institutsional islohotlarning izchilligi, davlat siyosatining strategik yo'nalishlari va innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishi muhim rol o'ynamoqda. Kelgusida ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirish agrar tarmoq samaradorligini oshirish bilan birga, butun mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoraqalpog'iston Respublikasining agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan transformatsion islohotlar natijasida mulkchilik shakllari erkinlashdi, bozor munosabatlari chuqurlashdi hamda ishlab chiqarish samaradorligi izchil oshib bormoqda. Ushbu jarayon agrar sohaning raqobatbardoshligini kuchaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, mavjud institutsional tizimlarning faoliyatini yanada takomillashtirish, xususan yer resurslarini boshqarish, suv ta'minoti va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarida shaffoflikni kuchaytirish, mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, agrar tarmoqdagi transformatsiya jarayonlarining muvaffaqiyati davlat siyosatining izchilligi, mahalliy boshqaruv organlari bilan xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik hamda innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, kelgusida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Qishloq xo'jaligida institutsional islohotlarni davom ettirib, klaster va kooperatsiya tizimlarini barqarorlashtirish, ularning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish;
- Agrar sohada raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish;



– Fermer xo'jaliklarini kredit va subsidiya dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash tizimini soddalashtirish, bu orqali moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

– Kadrlar salohiyatini oshirish va ilmiy-tadqiqot bazasini mustahkamlash orqali transformatsion jarayonlarning barqarorligini ta'minlash.

Mazkur takliflarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi Qoraqalpog'iston agrar tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga va qishloq aholisi farovonligini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayonlar hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda respublikaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlikda olib borilishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вахобов А.В., Ходиев Х.М., Эргашев Ш.Х., Умаров Р. Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда бозор иқтисодиёти тамойиллари ва институционал ислохотлар. – Тошкент: Iqtisodiyot, 2020. – 432 б.
2. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
3. Stiglitz, J. E. Globalization and Its Discontents. – New York: W. W. Norton & Company, 2002. – 304 p.
4. De Soto, H. The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. – New York: Basic Books, 2000. – 276 p.
5. Ostrom, E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 298 p.
6. Серова Е.В. Институциональные преобразования в аграрном секторе России: результаты и проблемы. – Москва: ИЭПП, 2019. – 287 с.
7. Рутковский М., Никонов А.А., Узун В.Я. Аграрная политика и структурные преобразования в сельском хозяйстве. // Вопросы экономики. – 2021. – № 4. – С. 35–47.
8. Абдыкаримов Б., Тулешова А., Сатибеков Б. Институциональные реформы и устойчивое развитие аграрного сектора Казахстана. // Central Asian Economic Review. – 2020. – № 3. – С. 45–56.
9. Токтосунов К. Аграрные преобразования и кооперативное движение в Кыргызстане. // Journal of Central Asian Studies. – 2021. – № 2. – С. 61–72.
10. Мамбетназаров Б.С., Мамбетназаров А.Б., Қуанышбаева Ш. Кунжутни экиш муддатининг дон ҳосилдорлигига таъсири. // PEDAGOGS журналы. – 2023. – Т. 33. – № 3. – С. 9–11.
11. Yeshimbetov U. Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi: asosiy muammolar va rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – T. 1. – № 4.
12. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991 (ikkinchi nashr).
13. FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations). Uzbekistan Agriculture and Rural Development Overview. – Rome: FAO, 2023.
14. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Hududlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami (2018–2024). – Toshkent, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
